O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

**2024- YIL YANVAR – SENTABR**

*(dastlabki ma’lumot)*

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 343,1 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 131,0 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,2 % yoki 258,0 trln so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 24,8 % yoki 85,1 trln so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 36,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliya-lashtirish manbalari hisobidan 306,2 trln so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha fsosiy kapitalga investitsiyalar, % da



## Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

**Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, trln so‘m**




So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,5 barobarga ko‘paydi, ayniqsa joriy davrda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 trln so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, % da**




So‘nggi besh yil ichida o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, ular o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2021-2022-yilllarda 103,3-103,9 % atrofida o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, so‘nngi 2 yilda yuqori o‘sish sur’atlari 118,9 va 131,0 kuzatildi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da




## Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## O‘zbekiston Respublikasida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da




## Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar va o‘sish sur’atlari kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 175,7 % ni tashkil etdi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,4 trln so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,2 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,6 % i yoki 22,7 trln so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 100,9 trln so‘mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga ko‘payib, 29,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 8,1 trln so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,3 % ini tashkil etdi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 20,0 trln so‘m (5,8 %), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 112,1 trln so‘m (32,7 %), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 2,0 trln so‘m (0,6 %), Respublika budjeti 13,3 trln so‘m (3,9 %), Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 1,6 trln so‘m (0,5 %) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o‘zlashtirildi.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi



# Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, % da

## Andijon viloyati




## Buxoro viloyati



# Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

## Jizzax viloyati




## Qashqadaryo viloyati



## Navoiy viloyati




## Namangan viloyati



# Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

## Samarqand viloyati




## Surxondaryo viloyati



# Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

## Sirdaryo viloyati




## Toshkent viloyati



# Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

## Farg‘ona viloyati




## Xorazm viloyati



## Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar




**Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi**, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat’i nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 167,1 trln so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 48,7 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo‘yicha 143,4 trln so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 41,8 %) va boshqa xarajatlarga 32,6 trln so‘m (9,5 %) o‘zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xorazm viloyatida kuzatildi – 69,0 % yoki 6,1 trln so‘m.

Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Buxoro viloyatida kuzatilib, 58,4 % ni yoki 20,6 trln so‘mni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiylarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da




Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 212,5 trln so‘mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,9 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar 77,4 trln. so‘mni tashkil etdi va respublikadagi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 22,6 % ini tashkil etdi. Qolgan 15,5 %, ya’ni 53,2 trln so‘m boshqa xarajatlarga yo‘naltirildi.

# Asosiy kapitalga investitsiylarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da




**Statistik tahlilni o‘tkazish maqsadida** asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo‘yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha shakllanadi.

# O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

**Jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, % da**



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da




o‘sish sur’ati **147,5 %**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 100,9 trln. so‘mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 147,5 % ni tashkil etdi.

o‘sish sur’ati **139,6 %**

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 20,0 trln so‘mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 139,6 % ni tashkil etdi.

o‘sish sur’ati **175,7 %**

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 112,1 trln so‘mni yoki, 2023-yilga nisbatan 175,7 % ni tashkil etdi.

## Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, O‘zbekiston bo‘yicha jami hajmga nisbatan, % da




Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar** – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo‘lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo‘yilmalaridir.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so‘m

| | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar | Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar |
|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **100 897,4** | **20 021,9** | **112 086,9** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1 763,2 | 861,9 | 7 803,7 |
| Andijon | 7 803,5 | 226,8 | 6 009,6 |
| Buxoro | 16 581,6 | 1 371,8 | 11 673,8 |
| Jizzax | 7 679,9 | 340,6 | 5 139,4 |
| Qashqadaryo | 6 341,6 | 2 448,2 | 10 124,5 |
| Navoiy | 6 430,6 | 1 762,7 | 10 369,2 |
| Namangan | 7 900,1 | 548,0 | 15 495,1 |
| Samarqand | 4 525,2 | 997,8 | 5 498,4 |
| Surxondaryo | 5 258,7 | 1 111,7 | 3 871,3 |
| Sirdaryo | 4 824,9 | 68,9 | 1 775,9 |
| Toshkent | 12 625,2 | 2 477,9 | 19 629,5 |
| Farg‘ona | 7 305,9 | 186,6 | 2 526,4 |
| Xorazm | 1 187,2 | 321,8 | 3 498,9 |
| Toshkent sh. | 10 669,7 | 7 297,2 | 8 671,3 |

2024-yil yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o‘zlashtirilib, 81,5 trln so‘mni yoki jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 35,0 % ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta’minlash faoliyat turida bu ko‘rsatkich 46,9 trln so‘mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 20,1 % ini qayd etdi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo‘yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

# O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

| | |
|---|---|
| Ishga tushirilgan turar-joylar, mln kv.m | 10,9 |
| Ishga tushirilgan umumta’lim maktablari, o‘quvchi o‘rni | 23 398 |
| Kasalxonalar, o‘rin | 934 |
| Ishga tushirilgan poliklinikalar, qatnov | 7 625 |
| Ishga, tushirilgan suv tarmoqlari, km | 576,2 |
| Maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘rin | 1 680 |
| Ishga, tushirilgan gaz tarmoqlari, km | 23,0 |
| Litseylar, o‘quvchi o‘rni | 360 |

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

# Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

| | Turar-joylar, ming kv.m | Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m | Suv tarmog‘i, km | Gaz tarmog‘i, km |
|---|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **10 878,6** | **7 426,3** | **576,2** | **23,0** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 660,3 | 340,9 | 202,1 | - |
| Andijon | 1 089,2 | 744,4 | - | - |
| Buxoro | 1 191,6 | 909,1 | - | - |
| Jizzax | 393,8 | 174,9 | 107,4 | 16,4 |
| Qashqadaryo | 673,1 | 418,7 | - | - |
| Navoiy | 533,6 | 413,4 | - | - |
| Namangan | 995,4 | 662,1 | - | - |
| Samarqand | 266,6 | 257,7 | - | - |
| Surxondaryo | 959,7 | 841,7 | - | - |
| Sirdaryo | 89,8 | 45,5 | - | - |
| Toshkent | 1 453,7 | 1 098,3 | - | - |
| Farg‘ona | 1 073,1 | 707,9 | 53,7 | 6,6 |
| Xorazm | 892,2 | 811,8 | 202,2 | - |
| Toshkent sh. | 601,1 | - | 10,8 | - |

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**
**Tel. 71 203-80-00 (1161)**